

KIMYOLASHTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI CHIQINDILARI

Sh.A.Safartosheva, O.N.Ikromova

Navoiy davlat universiteti, Kimyo ta'lim yo'nalishi talabalari

Ilmiy rahbar: D.A.Karimova

Respublikamizda o'rmon siyrak bo'lgani va maydoni asosan paxtachilikka ajratilgani uchun o'tgan asrning 80-yillarda uning ko'p tonnali (5-6 milion tonna) chiqindisi hisoblangan g'o'zapoyani qayta ishlovchi sellyuloza – qog'oz zavodini qurish muammosi ko'tarilgan edi. Bu muammoni hal etish paxta sellyulozasi kimyo va texnologiyasi ilmiy tekshirish institutiga yuklatilgan edi. Bu yo'nalishdagi chuqur ilmiy izlanishlar sobiq ittifoqning ilmiy tekshirish, loyiha va sanoat korxonalari bilan birgalikda olib borildi. Laboratoriya va sanoat jarayonlariga katta tajribalar o'tkazildi va bunga g'o'zapoya chiqindi emasligi, balki sellyuloza va qog'oz mahsulotlari olish uchun toza, qimmatbaho xom ashyo ekanligi aniq ko'rsatildi. G'o'za poyasidan sanoat jarayonida sellyuloza, yarim sellyuloza har xil yozishga yaroqli texnik qog'oz hamda B-3 qog'ozi, bundan tashqari gofraqog'oz, gofrakarton, yumshoq va qattiq M-20, M-12, T-350, T-400 markali DVP plitalari va o'rta zichlikdagi yarim plitalar hamda DSP plitalari olindi. Ular o'zining fizik-kimyoviy va mexanik xossalari bo'yicha daraxtdan olingan mahsulotlardan qolishmasligini ko'rsatdi. Tadqiqotlar gidroliz sanoatida paxta sheluxasidan olinadigan ozuqa drojalarini g'o'za poyasidan ham olish mumkinligi, paxta sheluxasini ozuqa sifatida chorvachilikni rivojlantirish uchun gidroliz sanoatidan chorvachilikka olib berish zarurligini ko'rsatdi.

1992-yilda Samarqand viloyati Paxtachi tumanida g'o'za poyasidan to'rt tabaqali 1x2 m o'lcham DSP plitasi bosadigan mini texnologik liniya qurib tajriba uchun ishga tushirildi. Shu yillarda ipakchilikni chiqindisi bo'lgan bargdan bo'shagan tut shoxlaridan karton olish va undan pilla idishchasi yasash orqali, uning oliy nav sortlarini ko'paytirish mumkinligi ko'rsatilgan.

G'o'za poyasidan shuncha sellyuloza, qog'oz kartoni, DVP va DSP plita navlari va gidroliz sanoati mahsulotlari, furfurool va em drojalari sanoat sharoitida olingan va ular o'z fizik-kimyoviy va mexanik pishiqligi bilan daraxtdan olinadigan mahsulotlardan qolishmas ekan nega bu sohada tegishli sanoat barpo etilmadi degan savol tug'ulishi tabiiy. Buning asosiy sababi g'o'zapoyani mexanizastiyalashtirilgan holda yig'ish va saqlash muammolari hozirgacha hal qilinmaganidir.

G'o'zapoyani yig'ishtirish va g'amlab qo'yish kech kuzga to'g'ri keladi. Respublikamizda tayyorlangan press-to'plash (PS-1.6X) mashinasi g'o'zapoyani sifatli yig'ishtirib bera olmadi. Paxtachilik chiqindisi bo'lgan g'o'zapoyani hozir mahalliy xalq

yonilg'i sifatida ishlatmoqda. Oxirgi izlanishlar shuni ko'rsatmoqdaki, agar paxta orasida bug'doy ekish bilan birga g'o'zapoya maydalanib tuproq usti mulchallansa, bug'doy urug'i unib chiqishiga va hosildorlik oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'p yillar davomida tuproq tarkibidagi gumus miqdori kamayib ketgan edi. Uning miqdorini oshirish, hozirgi paytdagi katta muammolardan biri hisoblanadi. Joylarda tarkibida sellyuloza bulgan chiqindilar: shog'-shabbalar (daraxtlarga, uzumlarga ishlov berilgandan keyin hosil bo'lgan), hazonlar, suv bo'ylaridagi qamishlar, o'simliklar pamidor va boshqa sabzavod-poliz ekinlari poyalari, keraksiz o'tlar va boshqalar iloji boricha 1 sm va undan kalta qilib, ushbu maydalagichlarda maydalanib, erni haydash oldidan dalaga sochilsa, erning gumusi yil sayin oshib borishi aniqlangan.

Bunda tuproq strukturasi holati yaxshilanib, uning unumdorligi oshib boraveradi. Fermerlarning talabi bilan mashinasozlik korxonolari tomonidan soddagina qilib bunday maydalagichlar ishlov berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida bergan tavsfiyalarni amalga oshirish bir tarafdin tuproqni gumus bilan boyitib, unumdorligini oshirsa, ikkinchi tarafdin o'simlik va shoh-shabbalarni bilib-bilmay yondirishni oldini oladi va atrof-muhit ekologiyasi yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.A.Karimova. "Kimyoviy ekologiya". T. 2020.
2. D.A.Karimova Ekologik kimyo. T.2018.
3. D.A.Karimova Hidroekologiya. T.2018.
4. D.A.Karimova, F.S. To`xtayev Sanoat ekologiyasi. T. 2019.